## 16-son Shartnoma

(avtomobilga texnik-servis xizmat ko'rsatish va ta'mirlash to'g'risida)

Toshkent sh. "2" fevral 2022-yil

Bundan buyon "Buyurtmachi" deb ataluvchi TDYU qoshidagi akademik Litsey nomidan Nizom asosida faoliyat olib boruvchi I. Rustambekov bir tomondan va keyingi o'rinlarda "Bajaruvchi" deb nomlanuvchi "AUTO TECHNIK GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati nomidan Ustav asosida faoliyat olib boruvchi uning direktori Ye. S. Kudryavseva boshqa tomondan, birgalikda "Tomonlar", har biri alohida "Tomon" deb nomlanuvchilar, ushbu shartnomani O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi, O'RQ-684 22.04.2021 yil "Davlat xaridlari to'g'risida"."Avtomobil transporti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo'yicha xavfsizligi to'g'risida"gi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi 2012-yil 4-iyuldagi 191-son qaroriga muvofiq quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. "Bajaruvchi" "Buyurtmachining" topshirig'i bo'yicha, tomonlarning kelishuviga binoan, xizmatlarni (transport vositasi, avtomashinalarda reglament ishlarini o'tkazish, TXK va ta'mirlash) ko'rsatish majburiyatini oladi va "Buyurtmachi" ushbu shartnomada belgilangan muddatda ularni qabul qilish va haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. "Bajaruvchi" transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar taqdim etadi, ular O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq tovar (moddiy boylik) hisoblanmaydi.

1.3. Xizmatlarning nomi va ro'yxati, ularning miqdori va narxi Tomonlar tarafidan kelishiladi va ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan Nuqsonlar dalolatnomada (Shartnomaning 1-ilovasida)

1.4. "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ning zimmasiga unga tegishli transport vositalarini ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish majburiyalarini yuklaydi va topshiradi.

| Avtomashinaga texnik xizmat ko'rsatish va uni joriy ta'mirlash: | Tovarlar va xizmatlar nomi | Summa (so'm) 15% QQS bilan |
|---|---|---|
| | Нексия 01\199YDA | |
| | **Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun jami summa 15% QQS bilan** | **3 599 500,00** |

### 2. TO'LOV MUDDATLARI VA SHARTLARI

2.1 Shartnomaning umumiy qiymati : so'mni tashkil qiladi. "Bajaruvchi" texnik xizmat ko'rsatishni va ta'mirlashni faqat № 2020 8000 4002 6007 1001 hisob raqamiga shartnomaning 2.2-bandida ko'rsatilgan mablag' tushganidan keyin amalga oshiradi.

2.2. To'lov summasining oldindan to'lovi shartnoma O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligidan ro'yxatdan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab 10-bank kuni mobaynida shartnoma summasining 30% miqdorida o'tkazilishi lozim.

2.3. Hujjatlar aylanmasi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq yozma yoki elektron shaklda amalga oshiriladi.

2.4. Shartnomaning qolgan 70% summasi "Buyurtmachi" tomonidan yuk xatlari, hisob varaq-fakturalarni olingan paytdan boshlab shartnomaning 2.1-bandidagi hisob raqamiga o'tkazilishi lozim.

2.5. Agar ishlarni bajarish yoki tekshirish jarayonida qo'shimcha nuqsonlar aniqlanib, ularni bartaraf qilish nuqsonlar dalolatnomasida ko'zda tutilmagan bo'lsa, ularni bartaraf etish ushbu Shartnoma Tomonlarining vakolatli vakillari tomonidan imzolanishi kerak bo'lgan nuqsonlar dalolatnomasiga qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritilgandan so'ng amalga oshiriladi. Bunday holda avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni bajarish muddati qo'shimcha ishlarning tegishli vaqtiga uzaytirilishi mumkin.

2.6. "Bajaruvchi" shartnomaga muvofiq oldindan to'lov o'tkazilgan va materiallar hamda transport vositalari taqdim etilgan paytdan boshlab 30 kun ichida texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlashni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

2.7. Hujjatlar rasmiylashtirilgan, materiallar va transport vositasi qabul qilingan paytdan boshlab but saqlash majburiyati "Bajaruvchi"ga o'tadi.

***Umumiy summasi: Uch million besh yuz to'qson to'qqiz ming besh yuz so'm 00 tiyin 15% QQS***

2.8. Ushbu shartnoma shartlariga binoan, xizmatlar bahosi va xarajatlar hisob-kitobi ishlar va ehtiyot qismlar bahosidan hisoblanadi va 1-ilovasida ko'rsatilganlarni Nuqsonlar dalolatnomasini tuzish vaqtida Tomonlar tarafidan kelishib olinadi va umumiy summani tashkil qiladi.

### 3. XIZMAT KO'RSATISHNING MUDDATLARI VA TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha xizmatlar "Bajaruvchi" tomonidan Tomonlar o'rtasida tuzilgan va kelishilgan Nuqsonlar dalolatnomasi asosida ko'rsatiladi. Xizmat ko'rsatish uchun avtotransport vositalarini taqdim etish sanasi va vaqtini Tomonlar o'zaro (yozma yoki telefon orqali og'zaki) kelishib oladilar.

3.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar Kichik xalqa yo'li, 25 a-uy manzilida joylashgan Texnik xizmat ko'rsatish shoxobchasida ko'rsatiladi.

3.3. "Buyurtmachi" "Bajaruvchiga" transport vositasini va pul mablag'lari tushganligi to'g'risidagi ma'lumotni Shartnoma O'zbekiston Respublikasi G'aznachiligidan ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab 10-kun ichida taqdim etishi kerak.

3.4. Ishlar, ishlatilgan ehtiyot qismlar, butlovchi qismlar, agregatlar, sarflanadigan materiallar hajmi va bahosi xizmatlarning turiga, hajmiga va murakkabligiga qarab belgilanadi va Nuqsonlar dalolatnomasini tuzishda ko'rsatiladi va kelishiladi. Tomonlar Nuqsonlar dalolatnomasini imzolaydilar va u ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish muddati ishlarning hajmi va murakkabligiga bog'liq va har bir holat bo'yicha Tomonlar kelishib oladi.

3.5. Avtomashinani texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun topshirish "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi" vakil(lar)i ishtirokida amalga oshiriladi.

3.6.Tomonlarning yuridik va bank rekvizitlari o'zgargan taqdirda, Tomonlar 5 (besh) kalendar kun ichida boshqa Tomonni xabardor qilishlari shart. Aks holda, Tomonning avvalgi rekvizitlar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishi Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarilgan deb hisoblanadi.

3.7. Texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlarni taqdim etish Shartnoma muddatining amal qilish davrida amalga oshirilishi mumkin.

### 4. XIZMAT KO'RSATISH SIFATI

4.1 Materiallar uchun kafolat muddati ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan kafolat muddati taqdim etilgan taqdirda amal qiladi.

4.2. "Buyurtmachi" butlikni va xizmatlarning sifatini "Bajaruvchi" huzurida transport vositasini olish vaqtida tekshirishi shart.

4.3. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan o'rnatish uchun sotib olingan va taqdim etilgan yasama (asl nusxada bo'lmagan) ehtiyot qismlardan foydalanish natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgar

4.4. Agar xizmat ko'rsatish jarayonida bartaraf etilishi Nuqsonlar dalolatnomasida ko'zda tutilmagan nosozlik aniqlansa, yoki uni bartaraf qilmaslik xizmat ko'rsatishni davom ettirishni qiyinlashtirsa yoki imkonsiz / behuda qilsa, shuningdek ularning sifati, narxi va muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lsa, "Buyurtmachi"ga xabar berish orqali xizmat ko'rsatish to'xtatib turiladi. Bu holda xizmat ko'rsatish muddati "Buyurtmachi"dan ko'rsatmalar olish va qo'shimcha xizmat ko'rsatish davriga uzaytiriladi va qo'shimcha Nuqsonlar dalolatnomasi tuziladi.

4.5. Sifat talabga javob bermagan va taqdim etilgan xizmatlardan chetlashgan taqdirda "Buyurtmachi" darhol "Bajaruvchi"ni talabga javob bermaslik to'g'risida xabardor qiladi va O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasiga muvofiq takroriy xizmatlardan bepul foydalanish huquqiga ega.

## 5. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. "Bajaruvchi":

a) ushbu shartnomaning 1.2-bandga muvofiq, "Bajaruvchi"ning hisob raqamiga shartnoma summasining 30% miqdorida oldindan to'lov kelib tushgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kun ichida majburiyatlarni bajaradi;

b) ish va xizmatlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi;

v) sifat bo'yicha texnik shartlarga javob beradigan (asl) yangi ehtiyot qismlardan foydalanadi;

g) agar xizmat ko'rsatish (materiallar) jarayonida texnik holatning sifatini yomonlashtirishga olib kelgan Shartnoma shartlaridan chekinishga yo'l qo'ygan bo'lsa, qaysi biri birinchi yuz berishiga qarab 3 (uch) oy yoki 15000 km. yo'l bosish ichida "Buyurtmachi" talabiga binoan barcha kamchiliklarni bepul tuzatib beradi;

d) ishlab chiqaruvchi korxona me'yoriy-texnik, ekspluatatsiya - ta'mirlash va texnologik hujjatlariga muvofiq xizmatlar ko'rsatadi;

ye) alohida ishlarni bajarish uchun shartnoma bo'yicha uchinchi shaxslarni jalb qiladi. Shu bilan birga, "Bajaruvchi" ko'rsatilgan xizmatlar sifati uchun "Buyurtmachi" oldida javobgardir.

j) "Buyurtmachi" tomonidan ushbu toifadagi transport vositasiga ishlab chiqaruvchi korxona tomonidan belgilangan transport vositasidan foydalanish qoidalari buzilgan taqdirda "Bajaruvchi" ta'mirlangan transport vositasidan, shu jumladan ularga nisbatan ta'mirlash ishlari olib borilgan agregatlardan kafolatni olib tashlaydi;

5.2. "Buyurtmachi":

a) "Bajaruvchi"ga xizmat haqini o'z vaqtida to'laydi;

b) avtomobilni xizmat ko'rsatish hududiga yetkazadi. Yetkazib berish imkoniyati bo'lmagan taqdirda yetkazib berish evakuator bilan "Bajaruvchi" hisobidan amalga oshiriladi;

v) ushbu Shartnoma bo'yicha barcha majburiyatlarini o'z vaqtida bajaradi;

g) "Bajaruvchi" ishiga aralashmasdan u tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini nazorat qilish huquqiga ega;

d) avtomobilni ta'mirlash uchun o'z ehtiyot qismlari, materiallari, agregatlari va boshqa jihozlarini taqdim etishi mumkin, agar ular "Bajaruvchi" omborida bo'lmasa;

ye) ta'mirlash uchun transport vositasini (texnik xizmat ko'rsatish) uchun yetkazib berish "Buyurtmachi" tomonidan amalga oshiriladi.

## 6. QABUL QILISH-TOPSHIRISH TARTIBI

6.1. Avtotransport vositasini qabul qilish - topshirish uni ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish joyida (texnik hizmat ko'rsatish) amalga oshiriladi.

6.2. Ishlar bajarilgandan (xizmatlar ko'rsatilgandan) keyin "Bajaruvchi" elektron hisobvaraq faktura va Bajarilgan ishlar dalolatnomasini taqdim etadi. "Buyurtmachi" uch kun ichida tasdiqlashi va transport vositasini olishi yoki rad etishi shart, tasdiqlash muddati o'tib ketgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 105-moddasiga muvofiq bitim yakunlangan hisoblanadi.

6.3. "Buyurtmachining" vakili transport vositasini qabul qilib olishda rasmiylashtirilgan shartnomani taqdim etishi lozim.

6.4. Qabul qilingan xizmatlar uchun yuk xati-hisobvaraq fakturalari (elektron hisob-varaq fakturalar) imzolangan va transport vositasini topshirgan paytdan boshlab "Buyurtmachi" transport vositasi uchun to'liq moddiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

6.5. Ushbu shartnomaning 2.2-bandda ko'rsatilgan davr ichida shartnomada ko'rsatilgan summa to'lanmagan taqdirda "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan xizmatlarni olishiga kafolat bermaydi.

## 7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

7.1. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar

7.2. Xizmatlar kechiktirilgan yoki ko'rsatilmagan taqdirda, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"ga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo jarimaning umumiy miqdori ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani to'g'ri bajarishdan va xizmatlarni kechiktirish yoki ko'rsatmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

7.3. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

7.4. Boshqa hollarda Tomonlarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga muvofiq belgilanadi.

7.5. "Buyurtmachi" transport vositalarini ta'mirlash xizmatlarini o'z ehtiyojlari uchun oladi, ulardan (xizmatlardan) boylik orttirish uchun yoki shaxsiy, oilaviy, uy va shu tarzda qo'llash bilan bog'liq boshqa maqsadlarda foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

7.6. Shartnoma bo'yicha xizmatlar tanlanmagan (xizmatlarni qabul qilish asossiz rad etilgan) taqdirda, Tomonlar Solishtirish dalolatnomasini imzolaydilar, uning asosida "Bajaruvchi" materiallarni xarid qilish uchun sarflangan xarajatlarni chegirib qolgan holda pul mablag'larini qaytarib beradi. Shu bilan birga, "Buyurtmachi"dan tanlanmagan xizmatlar narxining 5% miqdorida jarima undiriladi.

7.7. "Buyurtmachi" shartnoma bajarilgan kundan boshlab 10-kun ichida transport vositasini olib ketmagan taqdirda, "Bajaruvchi" transport vositasini "Buyurtmachi" hisobidan avtoturargohga o'tkazish huquqini o'zida saqlab qoladi.

7.8. Jarimalarini to'lash qarzning asosiy summasini to'lashdan ozod qilinmaydi.

## 8. FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng, ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarning biron bir tomonini to'liq yoki qisman to'g'ri bajarishiga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelsa va agar bunday holatlar, ya'ni yong'in, toshqin, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar, eksport yoki importga to'siqlar yoki embargolar, urush, jangovar harakatlar, terroristik harakatlar, ish tashlashlar (tomonlar ishchilarining ish tashlashlaridan tashqari), pandemiya, amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar, davlat organlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan umumiy xarakterdagi qarorlar tomonlarning shartnoma shartlarini bajarishiga bevosita ta'sir qilsa, tegishli majburiyatlarning bajarilishi vaqti bunday holatlar bartaraf etilgan vaqtga yoki ularning oqibatlari tugashi vaqtiga

8.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon, ushbu holat haqida shuningdek, holatning taxminiy davomiyligi to'g'risida boshqa Tomonni yozma ravishda 7 (yetti) kun ichida xabardor qilishi shart. Agar yuqorida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, yengib bo'lmas kuch ta'sirida zarar yetkazilgan Tomon ushbu holatlarni asos qilib ololmaydi. Xabarnomada ko'rsatilgan faktlar rasmiy manbalar tomonidan berilgan hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, shu jumladan, press-relizlar, biroq ular bilan cheklanmaslik lozim. Bunday xabarnomaning yo'qligi, shuningdek tegishli dalillarning yo'qligi ushbu tomonni shartnoma majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishiga asos sifatida yuqoridagi holatlarni keltirish huquqidan mahrum qiladi.

8.3. Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar zudlik bilan o'zaro muzokaralar olib boradilar va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish yoki bartaraf etish maqsadida ko'riladigan choralar to'g'risida kelishib oladilar.

8.4. Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, tomonlarning har biri boshqa tomonga ushbu shartnomani bekor qilishning kutilayotgan sanasidan 10 (o'n) ish kuni oldin yozma ravishda xabar yuborganidan keyin ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda tomonlarning hech biri boshqa tomondan fors-major holatlari natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas. Shuningdek, "Bajaruvchi" bajarilmagan majburiyatlari uchun "Buyurtmachi"dan olingan barcha to'lovlarni "Buyurtmachi"ga qaytaradi va "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ning bajarilgan barcha majburiyatlarini to'liq to'laydi.

## 9. NIZOLARNI KO'RIB CHIQISH

9.1. Ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar, imkoni boricha, tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

9.2. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishning iloji bo'lmaganda, barcha nizolar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## 10. MAXFIYLIK

10.1. Tomonlar kelishuvning mazmuni, shuningdek ushbu shartnomani tuzilishi va bajarilishi munosabati bilan tomonlar tomonidan bir-biriga o'tkazilgan barcha hujjatlar maxfiy hisoblanadi va tomonlarning tijorat sirlari hisoblanadi, bu boshqa tomonning yozma roziligisiz oshkor etilishi mumkin emas. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq yuridik shaxsning tijorat sirini tashkil eta olmaydigan ma'lumotlar yuqoridagi qoidadan istisno hisoblanadi.

10.2. Maxfiylikni saqlash majburiyatlari ushbu shartnomaning amal qilish muddati tugaganidan yoki muddatidan oldin bekor qilinganidan keyingi 3 (uch) yil ichida amal qiladi.

10.3. Axborotning maxfiyligi shartlarini buzganligi uchun bunday huquqbuzarlikni sodir etgan tomon, buning oqibatida yetkazilgan zararni qoplash shaklida javobgar bo'ladi. Ushbu qoidalar, shuningdek, tomonlardan biri qayta tashkil etilgan taqdirda o'z vorislari uchun, tomonlardan biri tugatilgan taqdirda - boshqa tomon uchun ham qo'llaniladi. Har bir tomonning boshqa tomonning maxfiy ma'lumotlarini himoya qilish usullari ushbu tomonning o'zlarining maxfiy ma'lumotlarini himoya qilish usullaridan kam bo'lmaydi. Hech bir tomon boshqa tomonning yozma roziligisiz ikkinchi tomonning maxfiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berishga yoki ikkinchi tomonning maxfiy ma'lumotlari bilan uchinchi shaxslarni tanishtirishga haqli emas.

## 11. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

11.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

11.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

11.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni

11.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi:

a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tusdagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga;

b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish yohud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini, tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashliligini yashirishga;

v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

11.5. Taraflar tovarlar, xizmat va ishlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda, bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyuterlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarga) nisbatan quyidagi harakatlarni amalga oshirishi shart:

– korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish;
– ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik;
– ularni faqat tarafning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish;
– ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

11.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

11.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 11.4 va 11.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

## 12. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

12.1 Ushbu Shartnoma tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

12.2. Ushbu shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlarning roziligi bilan yozma shaklda amalga oshiriladi, qo'shimcha shartnoma bilan rasmiylashtiriladi va har ikki Tomon imzolashi lozim.

12.3. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega ikki nusxada, Tomonlarning ixtiyoriga ko'ra o'zbek tilida tuzilgan. Shartnomani yozma yoki elektron ko'rinishda tuzish shakli bir xil yuridik kuchga ega, yuk xati, hisobvaraq faktura va elektron hisobvaraq faktura teng yuridik kuchga ega.

12.4. "Bajaruvchi" oldindan to'lov qilib, ushbu shartnoma shartlariga to'liq rozi ekanligini va u bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi va 11.1. k.b. ko'rsatilgan muddatlar tugaganidan keyin qo'shimcha to'lovni amalga oshirishni va bitimni yakunlash uchun barcha kerakli hujjatlarni taqdim etishni o'z zimmasiga oladi, zarur hujjatlar (Shartnomalar, Bajarilgan ishlar dalolatnomalari, hisobvaraq fakturalar, Solishtirish dalolatnomalari, elektron hisobvaraq faktura) elektron hisobvaraq faktura olingan paytdan boshlab uch kunlik muddat ichida taqdim etilmagan yoki zarur hujjatlarni imzolashdan bosh tortgan taqdirda shartnoma shartlarini bajarmaslikning barcha oqibatlarini o'z zimmasiga oladi.

12.5. "Buyurtmachi" tomonidan transport vositalaridan foydalanish qoidabuzarligi va moliyaviy qoidabuzarlik (to'lov, hisob-kitob, xizmatlardan noto'g'ri foydalanish va noto'g'ri taqdim etilgan ma'lumotlar) sodir etilgan taqdirda, barcha javobgarlik "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq Buyurtmachining zimmasida bo'ladi.

## 13. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

| "Buyurtmachi" | "Bajaruvchi" |
|---|---|
| TDYU qoshidagi Akademik litsey | "AUTO TECHNIK GROUP" MCHJ |
| Shayxontohur tum, Labzak kuy. | Toshkent shahri, Yangisergeli mavzesi 3, 4/3 14 avtomajmua, tel (+99890) 902-92-03 |
| tel: 241-57-44 | e-mail : avtotechnik.group@mail.ru |
| 400 ... 860262777092500009001 | hisob raqam: 2020 8000 4002 6007 1001 |
| ... 00014 ... INN: 203193971 | HK 326070022909 MFO 01042 |
| ... Tosh. shaxri | bank : "Kapital bank" ATB Sergeli F.-l. |
| | STIR 302 726 960 OKNOX 14 933 OKED 45 201 |
| M.O'. Imzo | M.O'. Imzo |
| Direktor R. Rustambekov | Direktor Kudryavseva Ye.S. |

Yurist U. Ismoilov



*ООО "AUTO TECHNIK GROUP"*

*г.Ташкент массив Янгисергели 3 Автокомплекс 4/3 -14*
*р./с 2020 8000 4002 6007 1001*
*Банк АКБ "КАПИТАЛ-БАНК" Сергели ф-л. МФО 01042*
*ИНН 302 726 960 ОКОНХ 14 933 ОКЭД 45 201*
E-mail : avtotechnik.group@mail.ru
*тел (+99871) 250-02-22 тел (+99890) 902-92-03*

## Нуқсонлар Далолатномаси

*1-илова*

| № п.п. | Товарлар ва хизматлар номи | давлат рақами | ўл.бир. | сони | эскириш сабаби | ишлаб чиқарган давлат (Артикул) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Гидрокомпенсатор | Нексия 01\199 YDA | шт. | 16,00 | износ | GM 96376400 Корея |
| 2 | Направляющие клапанов | Нексия 01\199 YDA | шт. | 16,00 | износ | GM 96336671 Корея |
| 3 | Ремень зубчатый | Нексия 01\199 YDA | шт. | 1,00 | износ | GM 96417177 Корея |
| 4 | Ролик натяжителя | Нексия 01\199 YDA | шт. | 1,00 | износ | GM 96350526 Корея |
| 5 | Натяжитель ремня | Нексия 01\199 YDA | шт. | 1,00 | износ | GM 96350550 Корея |
| 6 | Сальник распредвала | Нексия 01\199 YDA | шт. | 2,00 | износ | GM 96350161 Корея |
| 7 | Прокладка головки блока | Нексия 01\199 YDA | шт. | 1,00 | износ | GM 94580413 Корея |
| 8 | Клапан впуск\выпуск | Нексия 01\199 YDA | шт. | 16,00 | износ | GM 96182805 Корея |
| 9 | Сальник клапанов | Нексия 01\199 YDA | шт. | 16,00 | износ | GM 96840122 Корея |
| 10 | Прокладка крышки клапанов | Нексия 01\199 YDA | шт. | 1,00 | износ | GM 96353002 Корея |
| 11 | Прокладка коллектора впускного | Нексия 01\199 YDA | комп. | 1,00 | износ | GM 96352947 Корея |
| 12 | Прокладка коллектора выпускного | Нексия 01\199 YDA | шт. | 1,00 | износ | GM 96350469 Корея |
| 13 | Насос водяной | Нексия 01\199 YDA | шт. | 1,00 | износ | GM 96990997 Корея |
| 14 | Сальник коленвала | Нексия 01\199 YDA | шт. | 1,00 | износ | GM 96350161 Корея |

### Сарфланадиган материаллар калькуляцияси

| | эҳтиёт қисмлар номи | ўл.бир. | умумий иш хаки | сони | нархи | суммаси | Код ИКПУ |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Гидрокомпенсатор | шт. | 80 000,00 | 16,00 | 50 000,00 | 800 000,00 | 11302001001000000. |
| 2 | Направляющие клапанов | шт. | 80 000,00 | 16,00 | 15 000,00 | 240 000,00 | 11302001001000000. |
| 3 | Ремень зубчатый | шт. | 10 000,00 | 1,00 | 140 000,00 | 140 000,00 | 11302001001000000. |
| 4 | Ролик натяжителя | шт. | 20 000,00 | 1,00 | 120 000,00 | 120 000,00 | 11302001001000000. |
| 5 | Натяжитель ремня | шт. | 20 000,00 | 1,00 | 100 000,00 | 100 000,00 | 11302001001000000. |
| 6 | Сальник распредвала | шт. | 40 000,00 | 2,00 | 30 000,00 | 60 000,00 | 11302001001000000. |
| 7 | Прокладка головки блока | шт. | 80 000,00 | 1,00 | 120 000,00 | 120 000,00 | 11302001001000000. |
| 8 | Клапан впуск\выпуск | шт. | 80 000,00 | 16,00 | 20 000,00 | 320 000,00 | 11302001001000000. |
| 9 | Сальник клапанов | шт. | 80 000,00 | 16,00 | 10 000,00 | 160 000,00 | 11302001001000000. |
| 10 | Прокладка крышки клапанов | шт. | 10 000,00 | 1,00 | 70 000,00 | 70 000,00 | 11302001001000000. |
| 11 | Прокладка коллектора впускного | комп. | 10 000,00 | 1,00 | 90 000,00 | 90 000,00 | 11302001001000000. |
| 12 | Прокладка коллектора выпускного | шт. | 20 000,00 | 1,00 | 80 000,00 | 80 000,00 | 11302001001000000. |
| 13 | Насос водяной | шт. | 20 000,00 | 1,00 | 230 000,00 | 230 000,00 | 11302001001000000. |
| 14 | Сальник коленвала | шт. | 10 000,00 | 1,00 | 40 000,00 | 40 000,00 | 11302001001000000. |
| | **итого сумма расходных материалов** | | **560 000,00** | | | **2 570 000,00** | |

*2-илова*

| | Техник хизмат кўрсатиш бўйича хизматлар | | ўл.бир. | сони | нархи | суммаси | 15 % ҚҚС | умумий сумма |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Гидрокомпенсатор | замена\установка | услуга | 16,00 | 55 000,00 | 880 000,00 | 132 000,00 | 1 012 000,00 |
| 2 | Направляющие клапанов | замена\установка | услуга | 16,00 | 20 000,00 | 320 000,00 | 48 000,00 | 368 000,00 |
| 3 | Ремень зубчатый | замена\установка | услуга | 1,00 | 150 000,00 | 150 000,00 | 22 500,00 | 172 500,00 |
| 4 | Ролик натяжителя | замена\установка | услуга | 1,00 | 140 000,00 | 140 000,00 | 21 000,00 | 161 000,00 |
| 5 | Натяжитель ремня | замена\установка | услуга | 1,00 | 120 000,00 | 120 000,00 | 18 000,00 | 138 000,00 |
| 6 | Сальник распредвала | замена\установка | услуга | 2,00 | 50 000,00 | 100 000,00 | 15 000,00 | 115 000,00 |
| 7 | Прокладка головки блока | замена\установка | услуга | 1,00 | 200 000,00 | 200 000,00 | 30 000,00 | 230 000,00 |
| 8 | Клапан впуск\выпуск | замена\установка | услуга | 16,00 | 25 000,00 | 400 000,00 | 60 000,00 | 460 000,00 |
| 9 | Сальник клапанов | замена\установка | услуга | 16,00 | 15 000,00 | 240 000,00 | 36 000,00 | 276 000,00 |
| 10 | Прокладка крышки клапанов | замена\установка | услуга | 1,00 | 80 000,00 | 80 000,00 | 12 000,00 | 92 000,00 |
| 11 | Прокладка коллектора впускного | замена\установка | услуга | 1,00 | 100 000,00 | 100 000,00 | 15 000,00 | 115 000,00 |
| 12 | Прокладка коллектора выпускного | замена\установка | услуга | 1,00 | 100 000,00 | 100 000,00 | 15 000,00 | 115 000,00 |
| 13 | Насос водяной | замена\установка | услуга | 1,00 | 250 000,00 | 250 000,00 | 37 500,00 | 287 500,00 |
| 14 | Сальник коленвала | замена\установка | услуга | 1,00 | 50 000,00 | 50 000,00 | 7 500,00 | 57 500,00 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Сумма расходных материалов и услуг (включая автозапчасти) | 3 130 000,00 | 469 500,00 | *3 599 500,00* |

*Umumiy summasi: Uch million besh yuz to'qson to'qqiz ming besh yuz so'm 00 tiyin 15% QQS*

"Buyurtmachi" ____________ J. Rustambekov

"Bajaruvchi" ____________

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

## СВИДЕТЕЛЬСТВО

О ГОСУДАРСТВЕННОЙ РЕГИСТРАЦИИ В КАЧЕСТВЕ ПЛАТЕЛЬЩИКА НАЛОГА НА ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ

Настоящее Свидетельство подтверждает государственную регистрацию в качестве плательщика налога на добавленную стоимость и присвоение регистрационного кода.

НАИМЕНОВАНИЕ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКА:
AUTO TECHNIK GROUP

ИДЕНТИФИКАЦИОННЫЙ НОМЕР НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКА:
302726960

ПОЧТОВЫЙ АДРЕС:
YANGI SERGELI-3, AVTOMAJMUA, 4/3-QATOR, 14-DO'KON

РЕГИСТРАЦИОННЫЙ КОД:
326070022909

ДАТА РЕГИСТРАЦИИ:
29.12.2018

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

YURIDIK SHAXSNI DAVLAT RO'YXATIGA O'TKAZISH TO'G'RISIDA

## GUVOHNOMA

Reestr № 004050-06 № 004050
2013 yil "11" oktabr
Mazkur guvohnoma "AUTO TECHNIK GROUP"
yuridik shaxsga berildi
Tashkiliy-huquqiy shakl: mas'uliyati cheklangan jamiyat THShT (ОПФ) 1153
Mulkchilik shakli: Jamoa MShT (ФС) 142
Davlat ro'yxatidan o'tgan kundagi pochta manzili: YANGI SERGELI KO'CHASI, 3-UY, AVTOMAJMUA XUDUDI,4/3-QATOR,14-DO'KON MHOBT (СОАТО) 1726283
Yuridik shaxs kodi: KTUT (ОКПО) 24480157
Asosiy faoliyat turi: Aholi buyurtmasiga ko'ra yengil avtomobillar va boshqa transport vositalarini ta'mirlash hamda texnik qarovni o'tkazish XXTUT (ОКОНХ) 14933
Soliq to'lovchining identifikasiya raqami: STIR (ИНН) 302726960
Qo'shimcha ma'lumotlar:
Vakolatli organ boshlig'i: K.A. Abdurahmanov

## СВЕДЕНИЯ
о юридическом лице из Единого
осударственного регистра предприятий и организаций

| | | | |
|---|---|---|---|
| КПО: | 24480157 | Дата регистрации : | 11.10.2013 |
| НН: | 302726960 | Номер регистрации: | 4050-06 |

нование
ческого лица: "AUTO TECHNIK GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyat
ый адрес:
ОАТО: 1726283 Toshkent shahri, Sirg'ali tumani
, тупик, дом: Yangi Sergeli ko'chasi, 3-uy, Avtomajmua 4/3 qator, 14-do'kon
тные
оны: 909829203
ния об
ателях:
1 Djurayev Djamshid runzovich 484942395
2 Kudryavtseva Elena Sergeevna 468360409
3
4
5

ПФ: Общество с ограниченной или дополнительной ответственностью
КОНХ: 14932 - Ремонт легковых автомобилей (без ремонта по заказам населения)
КЕД: 45201 - Техническое обслуживание и ремонт легковых автомобилей
ООГУ: 79994 - Субъекты предпринимательства, не вошедшие в структуры органов государственного и хозяйственного управления
яние активности: Действующие предприятия

адлежность к субъектам малого
принимательства: Да

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

AA1350531

MA'LUMOTLAR / OBSERVATIONS

YASHASH JOYI / ADDRESS

Toshkent shahar Sirg'ali tumani

AA1350531